# INNOVATSION OMIL ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMINING BOSH XUSUSIYATLARIDAN BIRI SIFATIDA

*Ziroat Anvarovna Xolmatova*

*Qo`qon davlat pedagogika instituti dotsenti*

*401-guruh talabasiAbduvaliyeva Gulasal*

*401-guruh talabasi Meliquziyeva Marjona*

**Annotatsiya:** *ta'lim jarayonining barcha bosqichlarini qamrab oluvchi, zamonaviy innovatsion talablar bugungi kun uchun zamonaviy ta`lim tizimining tubdan isloh qilish, ta'limni yagona o'quv-ilmiy ishlab chiqarish majmuasi sifatida kompleks rivojlantirishning innovatsion omili sifatida ko`tarilmoqda*

**Kalit so`zlar:** *ta`lim, jarayyon, omil, innovatsiya, infrastruktura, innovatsion faoliyat*

**Аннотация:** *современные инновационные требования, охватывающие все этапы образовательного процесса, выдвигаются сегодня как инновационный фактор радикального реформирования современной системы образования, всестороннего развития образования как единого учебно-научно-производственного комплекса.*

**Ключевые слова:** *образование, процесс, фактор, инновация, инфраструктура, инновационная деятельность*

**Abstract**: *modern innovative requirements, covering all stages of the educational process, are put forward today as an innovative factor in the radical reform of the modern education system, the comprehensive development of education as a single educational, scientific and production complex.*

**Key words:** *education, process, factor, innovation, infrastructure, innovative activity*

Ta'lim jarayonining barcha bosqichlarini qamrab oluvchi, zamonaviy innovatsiya talablariga to'la javob beruvchi ta'lim infrastrukturasi, ya'ni uzluksiz ta'limning yaxlit tizimi mamlakatimizda yaratildi. Ushbu tizim ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, ta'limni yagona o'quv-ilmiy ishlab chiqarish majmuasi sifatida kompleks rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti SHavkat Mirziyoev o'zining "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalkimiz bilan birga quramiz" nomli asarida har bir fuqaroning vatanparvar va yurtparvarlik fazilatlariga ega bo'lishi, ona yurtini chin qalbidan sevishi va ardoqlashi, el-yurti uchun o'zini ayamasligi, bu yo'lda jonini ham fido qilishiga tayyor bo'lishi lozimligini uqtiradi [12, 16]. Mamlakatimiz taraqqiyotini ta'minlash uchun bugungi kunda har sohada bo'lgani kabi ta'lim tizimida, shu jumladan umumiy o'rta ta'limda axborot-kommunikatsiya va texnologik innovatsiyalarni keng joriy etish zarur talabga aylanmoqda.

Innovatsion omil zamonaviy ta'lim tizimining bosh xususiyatlaridan biri sifatida qaralar ekan, pedagogikadagi innovatsiyalar pedagog kadrlarning innovatsion faoliyatga tayyorlik va muvofiqlik darajasi, ularning innovatsion konpetentsiyalarni egallaganligi, kundalik ta'lim tizimida yaratuvchilik xususiyatlari bilan, ta'limdagi sifat va samaradorlik bilan belgilanadi. Ular quyidagi tamoyillarda o'z aksini topadi:

- ta'lim ustuvorligining tan olinishi;
- ta'lim olish shaklini tanlash erkinligi;
- ta'lim sohasida kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligi;
- ta'lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta'minlanishi;
- ta'lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi;
- ta'lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati;
- ta'limning uzluksizligi va izchilligi;
- davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;

- o'quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tabaqalashtirilganligi;
- insonning butun hayoti davomida ta'lim olishi;
- jamiyatda pedagoglarni ijtimoiy himoya qilishning kafolatlanganligi;
- ta'lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi;
- bilimlilik, qobiliyatlilik va iste'dodning rag'batlantirilishi;
- ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvining uyg'unligi;
- ta'lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflik.

Oilada yoki mustaqil o'qish orqali ta'lim olgan fuqarolarga, shuningdek professional va oliy ta'lim muassasalarida tahsil olmagan shaxslarga akkreditatsiyadan o'tgan davlat ta'lim muassasalarida eksternat tartibida attestatsiyadan o'tish huquqini berish orqali ta'minlanadi.

Mamlakatimizda bu kabi amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlardan ko'zlangan pirovard maqsadga erishishda ta'lim sohasi muhim ahamiyat kasb etib, bu jarayonda umumiy o'rta ta'lim tizimining natijaviyligi oliy ta'lim muassasalari faoliyati samaradorligini innovatsion talablar asosida oshirib borish vazifasini qo'yadi. Mazkur vazifani amalga oshirishda ta'lim-tarbiya jarayonini zamonaviy tashkil etishda pedagogik diagnostika imkoniyatlaridan foydalanish talab etiladi. Ta'lim-tarbiya jarayonida barkamol insonni shakllantirish mahsulasi orqali mustaqil fikrlovchi, ijodiy izlanuvchi, kuchli irodali, ishchan, g'oyaviy e'tiqodli, ma'naviyati yuksak, pok vijdonli shaxsni kamol toptirish dolzarb muammolar sirasiga kiradi. CHunki interfaollik asosidagi «sub'ekt-sub'ekt» munosabatini amalda qaror toptirmasdan turib, o'quv jarayonini innovatsion tashkil etish imkoniyatiga ega bo'lmaymiz. Bu o'rinda **pedagogik diagnostika** katta ahamiyat kasb etadi va ta'lim jarayonini innovatsion tashkil etishda pedagogik diagnostikadan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish asnosida jamiyatning barkamol shaxsni yetishtirishdek maqsadiga mos kelishi bilan tavsiflanadi.

Mamlakatimizda innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish, ularni barcha faoliyat sohalariga joriy etish, yosh avlodda ular bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qilishga katta

e'tibor qaratilmoqda. SHu asnoda, ta'lim jarayonining har bir bosqichida innovatsion pedagogik faoliyat mavjud bo'lsagina, yosh avlod tafakkurida innovatsion faoliyatga intilishni shakllantirish mumkin bo'ladi.

Zamonaviy ta'lim va tarbiya jarayoni - o'qituvchi shaxsining innovatsion maqsadga yo'naltirilganligi, o'z faoliyatini tashkil qilishning innovatsion shakl, usul, vosita va metodlarini egallaganligi, ta'lim mazmuniga mos ravishda innovatsion pedagogik faoliyatini tashkil qila olishini taqozo etadi.

Innovatsion faoliyat - yangi mahsulot yaratishga yo'naltirilgan ilmiy, texnologik, tashkiliy, moliyaviy, tijorat tadbirlari majmuasidan iborat bo'lib, ulardan maqsad yig'ilgan bilim, ko'nikma, malaka,texnologiya va ishlab chiqarish asboblarini mana shu yangi mahsulotni keng miqyosda ishlab chiqarilishiga ishlatish va uning samaradorligini ta'minlashdir.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva Sh. A. Pedagogik diagnostika-T.: Fan,2005,256 b.
2. Z. Kholmatova. EUROPEAN JOURNAL OF LIFE SAFETY AND STABILITY (EJLSS), 103-106. 2021. Method organization of project management and future pedagogues and basic skills of tutors
3. K. Agriculture. European journal of Research and Reflection in Educational Sciences (ISSN ...2019. PRIORITY DIRECTIONS OF PEDAGOGICAL SCIENCE
4. Холматова, З. А. "Этапы формирования культуры диалогических отношений у учащихся начальных классов." *Педагогическое образование и наука* 3 (2016): 132-135.
5. Холматова, Зироат Анваровна. "Роль педагогического опыта и социального генеза в анализе мотивов культуры общения и поведения молодежи." *Молодой ученый* 11 (2013): 672-674.

6. Anvarovna, Kholmatova Ziroat. "Training Technologies-guarantee of Sustainable Development of Uzbekistan." *International Journal on Orange Technologies* 2.10: 105-107.
7. Sadikovna, Rakhimova Khurshidakhan. "CORRECTIONAL AND PEDAGOGICAL WORK SYSTEM OF AUDITORY-SPEECH REHABILITATION OF CHILDREN WITH COCHLEAR IMPLANTS." *International Journal of Early Childhood Special Education* 14.6 (2022).
8. Komiljon, Raximova Xurshidaxon Sadikovna Sattarova Kamola. "PEDAGOGICAL AND EDUCATIONAL SYSTEM OF EDWARD SEGEN IN SPECIAL PEDAGOGY." *Confrencea* 3.03 (2023): 63-67.
9. Xolmatova, Z. A. "Methods Of Organization Of Project Activities In Future Teachers On The Basis Of Tutoring Skills." *European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630)* 7 (2021): 103-106.
10. Исакова, Арофат Махкамовна, and Юлдузхон Ахадовна Шакирова. "САМОПОНИМАНИЕ РЕБЕНКА В СИСТЕМЕ СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЙ." Интернаука 19-2 (2020): 42-44.
11. Mahkamovna, Isaqova Arofat. "STAGES OF REJECTION OF INNOVATIVE PROCESSES IN EDUCATION." *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603* 11.11 (2022): 74-76.
12. Tuxtasinova, Munira Ibragimovna, and Nozima Erkinovna Abdullayeva. "INCREASING AND IMPROVING READING LITERACY.(PIRLS)." *INTERNATIONAL CONFERENCES*. Vol. 1. No. 1. 2023.
13. O'ghiloy, Rakhimova Khurshidakhon Sadikovna Kurbanuva. "CHILDREN WITH LOCAL MOVEMENT DEFECTS." *Confrencea* 3.03 (2023): 226-230.
14. To'xtasinova, Munira Ibragimovna, and Maftuna Dadajon qizi Po'latova. "XALQARO BAHOLASH DASTURLARI (PIRLS) NING O 'QUVCHILAR SAVODXONLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI." *INTERNATIONAL CONFERENCES*. Vol. 1. No. 19. 2022.

15. Ibragimovna, Tuhtasinova Munira. "SCIENTIFIC-THEORETICAL AND PRACTICAL BASIS OF IMPROVING THE MECHANISMS OF USING INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAMS FOR INCREASING EDUCATIONAL EFFICIENCY (BASED ON THE PIRLS INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAM)." (2022).

